

ANTI-K DAVRI RIM FAYLASUFLARI

Saparbayeva Aziza Asror qizi

Urganch davlat universiteti,

Tarix fakulteti, Tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA


Ushbu maqolada Qadimgi Rimning faylasuf olimlari haqida ma'lumot olamiz. Rim ilmiy dunyoqarashining peshqadam vakillari hisoblangan, Sitseron, Semeka, Mark Avreliy, Avgustin Avreliy va Boetsiy hayoti va asarlaridagi ma'no-mazmun, o'sha davr kishilik jamiyatiga qay yo'sinda ta'sir o'tkazishganliklari haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Sitseron, Semeka, Mark Avreliy, Avgustin Avreliy, Boetsiy, stoitsizm, katolitsizm.

ABSTRACT

In this article, we will learn about philosophers and scientists of Ancient Rome. Cicero, Seneca, Marcus Aurelius, Augustine Aurelius, and Boethius, who were the leading representatives of the Roman scientific worldview, the meaning of their lives and works, and how they influenced the society of that time. we will have information.

Keywords: Cicero, Seneca, Marcus Aurelius, Augustine Aurelius, Boethius, Stoicism, Catholicism.



Sitseron Mark Tulliy


Sitseron Mark Tulliy (Marcus Tullius Cicero) (lotincha: Marcus Tullius Cicero; mil. av. 106.3.1, Arpinum — mil. av. 43.7.12, hozirgi Gaeta yaqini) — Rim siyosiy arbobi, notiq, yozuvchi. Rimda tahsil olib, notqlik san'atini egallaydi, so'ng Afina, Kichik Osiyo va Rodosda o'z bilimni mukammallashtiradi. Elchilik davrida (mil. av. 63 y.) Katalina fitnasini fosh etgani uchun "fuqarolik chambari" bilan taqdirlanadi va Rim fuqarolari orasida birinchi bo'lib "Yurt otasi" unvoniga sazovor bo'ladi. Ammo rimlik fitnachilarni sudsiz qatl etgani sababli mil. av. 58-yilda quvg'inga uchrab, xorijda yashashga majbur bo'lgan. Sezar o'ldirilgach (mil. av. 44 y.), Antoniy buyrug'i bilan qatl etilguniga qadar Rimning amaldagi hukmdori sanalgan. Sitseron siyosat, falsafa va adabiyotda "o'rta oqim" hisoblangan barqarorlik va vazminlik aqidalariga sodiq bo'lgan. "Aralash davlat tuzilmasi" (monarxiya, aristokratiya va demokratiyaning qo'shilishidan paydo bo'lgan hokimiyat) Sitseronning siyosiy ideali bo'lib, mil. av. II asr boshidagi Rim respublikasini buning namunasi deb hisoblagan. Sitseron faylasuf sifatida atomizmga qarshi chiqdi, jonni o'lmas va abadiy deb bildi, real tasavvurlarni real bo'lmagan tasavvurlardan farq qilish uchun mezon yo'q deb hisobladi. Falsafiy asarlarida etika masalalariga asosiy e'tiborni qaratdi. Yunon falsafasi atamalarini ishlab chiqdi. Davlat haqidagi risolalarida davlatni xususiy mulkni himoya qiluvchi, umumiy huquq me'yorlariga asoslangan kishilar uyushmasi sifatida talqin etdi. Sitseronning 58 ta nutqi, 19 ta asari va 800 dan ziyod maktublari saqlanib qolgan. Sitseron asarlari Rimdagi fuqarolar urushi davri to'g'risidagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Sitseron jahon tarixida notqlik san'atini mukammal egallagan kishi sifatida shuhrat qozongan. Uning turli sud jarayonlarida so'zlagan nutqlari notqlik san'atining eng yuksak namunalaridir. Sitseron o'z asarlari ("Yaxshilik va yomonlikning chegaralari to'g'risida", "Davlat to'g'risida", "Qonunlar to'g'risida", "Majburiyatlar to'g'risida" va boshqalar) hamda nutqlari bilan Rim mumtoz nasri va adabiy tiliga tamal toshini

qo‘ygan. Sitseronning "Verresga qarshi nutqlar", "Katilinaga qarshi nutqlar", "Orator haqida" traktatini Oybek o‘zbek tiliga tarjima qilgan.



Seneka Lutsiy Anney

Seneka Lutsiy Anney (taxminan mil. av. 4, Kordova, Ispaniya — mil. 65, Rim) — Rim faylasufi, yozuvchi, davlat arbobi. Rim imperatori Neronning tarbiyachisi va maslahatchisi. Imperatorga suiqasd qilishda ayblangan va o‘zini o‘ldirgan. Seneka stoitsizmning yirik vakillaridan biri. U tabiat va inson mohiyati haqida keng bilimga ega bo‘lgan, adabiy uslubni juda yaxshi egallagan. Senekaning falsafiy qarashlari ziddiyatli. U falsafani hayotda axloqiy-diniy qo‘llanma deb bilgan. "Lutsiliyga xatlar" falsafiy asari, "Himmat haqida", "Rahm-shafqat haqida", "Ruhiy xotirjamlik haqida" va boshqa risolalarida tarkidunyo qilish, o‘lim va taqdirni nazarpisand qilmaslik, ehtirolardan xoli bo‘lish, kishilarning axloqiy tengligi masalalari yoritilgan.



Avreliy Mark

Avreliy Mark (121-180) – Rim imperatori (161-yildan). Antoninlar sulolasidan. Senatorlar tabaqasiga suyangan. Armanistonda Rim hukmronligini tiklagan. Parfiyaliklar bilan bo‘lgan urushda (162–166) Mesopotamiyani bosib olgan. 166–180-yillarda Markoman urushi olib borgan. So‘nggi stoitsizm vakili ("O‘ylar" falsafiy asari

muallifi). Mark Avreliy falsafiy asar qoldirgan bo‘lib, asar yunon tilida yozilgan 12 ta "kitob" (kitob boblari), odatda "O‘zinga" yoki "O‘ylar" umumiy sarlavhasi bilan ataladi. Mark Avreliy falsafa o‘qituvchilari orasida stoiklar bor edi: Yuniy Rustik, Kalsedonlik Apolloniy, Maksim Klavdiy. Mark Avreliy so‘nggi stoitsizmning vakili sifatida o‘z falsafasida eng ko‘p e’tiborni etikaga qaratadi, falsafaning qolgan bo‘limlari esa propedevtik maqsadlarga xizmat qiladi. Oldingi stoitsizm an‘anasi insonda tana va ruhni, ya’ni pnevmani ajratib turdi. Marcus Aurelius insonda uchta tamoyilni ko‘radi, ular ruhga (yoki pnevmaga) va tanaga boshqa aql (yoki nous) qo‘shadi. Agar sobiq stoiklar ruh-pnevmani dominant printsip deb hisoblashgan bo‘lsa, Mark Avreliy aqlni yetakchi printsip deb ataydi. Reasonnus munosib hayot uchun zarur bo‘lgan impulslarning bitmas-tuganmas manbasini ifodalaydi. “Inson o‘z ongini butunning tabiati bilan uyg‘unlashtirishi va shu orqali befarqlikka erishishi kerak. Baxt umuminsoniy aql bilan hamohangdir” kabi fikrlarni ilgari suradi.



Avgustin Avreliy

Avgustin Avreliy, Avliyo Avgustin yoki Saint Augustine (lotincha: Aurelius Augustinus Hipponensis) (354, Tagast shahri, Shimoliy Afrika – 430, Gippion shahri, Shim.Afrika) – xristian dini ilohiyotchisi, “cherkov otalari”dan, adib, faylasuf. Katolitsizm aqidalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Gippion shahri uskufi (yepiskopi) martabasiga erishgan. Diniy-falsafiy ruhdagi qator va’z va risolalari saqlanib qolgan. Ulardan mashhurlari:

- 1) “Tavba” (400-yil);
- 2) “Ilohiy shahar haqida” (413-427-yillar; 22 kitobdan iborat).

“Ilohiy shahar haqida” asarining yozilishiga Rim imperiyasi poytaxti gotlar tomonidan bosib olinib, vayron qilinishi turtki bo‘ldi. Asarda bu vayrongarchilik rimliklar asrlar mobaynida o‘zga xalqlarga nisbatan o‘tkazgan bosqinchilik va zo‘ravonlik siyosati uchun xudo tomonidan yuborilgan jazo sifatida talqin qilinadi. Asarning 10 ta kitobi Rim tarixiga, 12 ta kitobi insonlar jamiyati va davlatning mohiyatiga bag‘ishlangan. Avgustin dunyoni ikki saltanatga bo‘ladi:

- 1) “zamin shahri” – yovuzlik, zo‘ravonlik va shayton saltanati;
- 2) “ilohiy shahar” – ezgulik va rahmon saltanati.

Birinchisi – inson xudbinligi asosiga qurilgan va ilohiylikni rad etadi, ikkinchisi – ilohiy mehr asosiga qurilgan bo‘lib, insonning moddiy ehtiyojlardan yuz o‘girishini taqozo qiladi. Avgustin ta’limotiga ko‘ra, “ilohiy shahar”ning yer yuzidagi timsoli masihiy cherkovidir, unga samoviy cherkovga tayyorgarlik vositasi sifatida qaralmoq lozim. Avgustin qadimgi yunon mushriklik davri qadriyatlarini masihiylik nuqtai nazaridan keskin tanqid qiladi, inson o‘z irodasi bilan ezgulikka erisha olmaydi, inson gunohlardan faqat xudoning inoyati va cherkov tufayli forig‘ bo‘ladi, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, “yagona tangri barcha go‘zallikning haqiqati va eng oliy go‘zallikdir”. Avgustin “e’tiqodsiz bilim ham, haqiqat ham yo‘q”, deb hisobladi. Uning ta’limoti Yevropada deyarli ming yil davomida ilm-fanning cherkovga tobe holda qolishiga muayyan darajada nazariy zamin bo‘ldi va cherkov hokimiyatining qudratli kuchga aylanishiga ko‘maklashdi.



BOETSIY

(480 (taxminan) -524 yillar)

Rimlik faylasuf, davlat arbobi Boetsiy go‘dakligidayoq otasidan yetim qoldi. Uni Rim shahrining hokimi Kvint Avreliy Memmiy Simmax o‘z tarbiyasiga oldi. Simmax o‘sha davrdagi eng ma‘rifatli va olijanob mansabdorlardan biri bo‘lgan. Boetsiy Arastuning mantiqiy asarlari va Porfiriyning «Arastu toifasiga kirish» deb atalgan qo‘lyozmasini tarjima qildi hamda sharhlab berdi. Boetsiy VI asrning boshidayoq Aflotun va Arastu asarlarini lotin tilida to‘liq nashr etishni niyat qilgandi. U Arastuning bir nechta asarini tarjima qilib ulgurdi. Ammo Aflotunning ijodiga qo‘l urishiga bevaqt ajal xalaqit berdi... Boetsiy qirq yoshga yaqinlashib qolganda hukmdor Teodorix saltanatidagi eng oliy martabalardan birini egallab, qaynotasi Simmax bilan birgalikda senatdagi eng nufuzli shaxsga aylandi. Uning falsafaga bo‘lgan qiziqishi, yuksak so‘zlash va eshitish qobiliyati hamda keng ko‘lamli madaniy va siyosiy bilimlari ko‘pchilikda havas uyg‘otardi. Boetsiy «falsafa do‘stlari»ning to‘garagini ochdi. Bu to‘garakka Simmax va papa Ioann I ham a‘zo bo‘lib kirishdi. Ularni falsafaga bo‘lgan qiziqishlaridan tashqari, Vizantiyaga ko‘hna madaniy qadriyatlar o‘chog‘i va Rim turmush tarzining yuksak namunasi deb qarashdek mushtarak fikrlar birlashtirib turardi. Hukmdor Teodorix saltanatida shuhrat cho‘qqisiga erishgan Boetsiyning saodatli kunlari uzoqqa cho‘zilmadi. Saroy a‘yonlaridan biri Kiprian Teodorixga senator Albin go‘yoki Vizantiya imperatoriga yashirincha maktub jo‘natib turishi haqida xabar yetkazdi. Senat majlisiga zudlik bilan yetib kelgan Boetsiy bu chaquvni qat’iy rad etib, nutq so‘zladi. Pirovardida aybdorlik soyasi senator Albinga tushgudek bo‘lsa, uning do‘sti — senat raisi Boetsiy ham chetda qolmasdi. Boetsiyning senatda so‘zlagan matonatli nutqi uning dushmanlariga yaxshi dastak bo‘ldi. Hasadgo‘ylar hukmdor Teodorixning huzuriga borib, Boetsiyni yolg‘on guvohlik berganlikda va... falsafa bilan mashg‘ullikda(!) aybladilar. Boetsiy ma‘ruzasining senat tomonidan sukut bilan qo‘llab-quvvatlanishi sershubha Teodorixni xavotirga solib qo‘ydi. Ustiga-ustak, saroydagi adovatchi va fitnachi kimsalar Teodorixning shubhalarini yanada alangalatib, Boetsiy va uning to‘garakdosh do‘stlariga qarshi turli tuhmatlar, ig‘vo-bo‘htonlar tarqatishdi. Tuhmatchi va g‘alamis mansabdorlarning bo‘htonlari hukmdor

Teodorixni talvasaga solib qo'ydi. U yuzidagi ma'rifatparvar hukmdor niqobini yechib tashlashga majbur bo'ldi. U asliga — qonxo'r, johil podshohga aylandi. Uning buyrug'iga muvofiq, Albin va Boetsiy xiyonatkorlikda ayblandilar. Senatorlar qo'rquv ostida bu ayblovni tasdiqlab, qo'llab-quvvatlashdi. Boetsiy va Albin hibsga olindilar. Albin tez orada qatl etildi. Boetsiyni esa bir necha oy zindonda saqlab, so'ng dorga osishdi. Oradan ikki yil o'tgach, hukmdor Teodorix ham o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, olamdan o'tdi. Boetsiy zindonda hukm ijrosini kutib, «Falsafa tasallisi haqida» asarini yozib tugatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Rim adabiyoti, T., 1939;
2. Rechi, t. 1—2, M., 1962;
3. Tri traktata ob oratorskom iskusstve, M., 1972;
4. Izbrannie sochineniya, M., 1975.
5. Utchenko S, Sitseron i yego vremya, M., 1972.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. ↑ 1 2 3 4 Столяров А. А. Марк Аврелий Антонин Архивная копия от 29 октября 2013 на Wayback Machine — статья в Новой философской энциклопедии.
8. ↑ Столяров А. А. Стоицизм Архивная копия от 19 декабря 2015 на Wayback Machine / Новая философская энциклопедия в 4-х томах. М.: Мысль, 2000—2001. — ISBN 5-244-00961-3. 2-е изд., испр. и допол. — М.: Мысль, 2010. — ISBN 978-5-244-01115-9.
9. ↑ 1 2 Д. Реале, Д. Антисери. Марк Аврелий. — В книге: Д. Антисери, Д. Реале. Западная философия от истоков до наших дней. Т.1-2 Античность и средневековье. СПб., 2003. — 688 с. — ISBN 5-901151-04-6. — С.148-150.
10. www.ziyouz.com.